



UDK:811.512

Charosxon XOLIIYOROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: charosxondavronovna@gmail.com

F.f.n I.Jo'rayeva taqrizi asosida

EMOTSIYA VA UNING NUTQIY JARAYONDAGI O'ZIGA XOS XUSISIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqola emotsiya va uning nutqiy jarayondagi ahamiyati qanday ekanligi, nutqiy jarayonga emotsiyaning salbiy va ijobiy ta'sirlari haqida yoritib beradi. Shuningdek emotsiyaning hissiyot va insonning ruhiy holati bilan farqlari hususida ham alohida so'z yuritilgan. Olimlarning fikriga tayangan holda, emotsiyaning rivojlanish tarixi va kategoriyalari hususida ham fikrlar keltirilgani bu maqolani yanada salohiyatini oshirib beradi. Keltirilgan fikrlar misollar orqali yoritib berilgani esa emotsiyaning kundalik turmushimizda tez-tez takrorlanib turishi va barchaga birdek tushunarli bo'lishini taminlab beradi.

Kalit so'zlar: Emotsiya, hissiyot, kayfiyat, nutqiy jarayon, ovoz balandligi, stress, motivatsiya.

ЭМОЦИЯ И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В РЕЧЕВОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются эмоции и их значение в процессе речи, их положительное и отрицательное влияние на процесс речи. Также рассматриваются различия между эмоциями и чувствами и психическое состояние человека. Представление размышлений об истории развития и категориях эмоций, основанное на мнениях учёных, ещё больше расширяет возможности статьи. Иллюстрирование представлений идей примерами гарантирует, что эмоции часто встречаются в нашей повседневной жизни и одинаково понятны всем.

Ключевые слова: Эмоции, чувство, настроение, речевой процесс, высота голоса, стресс, мотивация.

EMOTION AND ITS CHARACTERISTICS IN THE SPEECH PROCESS

Annotation

This article sheds light on emotion and its importance in the speech process, the negative and positive effects of emotion on the speech process. It also discusses the differences among emotion, feeling and mental state of a person. Based on the opinions of scientists, the presentation of thoughts on the history of the development and categories of emotion further enhances the potential of this article. The fact that the ideas presented are illustrated through examples ensures that emotion is frequently repeated in our daily lives and is equally understandable to everyone.

Key words: Emotion, feeling, mood, speech process, voice pitch, stress, motivation.

Kirish. Inson nutqi va ongi jihatdan boshqa mavjudotlardan farq qiladi. Inson nutqi va uning rivojlanishi murakkab jarayonligi hech kimga sir emas. Uning ravon, tushunarli va sarmazmun bo'lishi ko'p omillarga bog'liq. Emotsiya aynan insonning nutqiga katta tasir ko'rsatuvchi omil deya olamiz. U nafaqat bizning so'zlarimizga, balki qanday gapirishimizga ham sezilarli darajada o'z tasirini o'tkazadi. Ovoz balandligi, nutqning davomiyligi va intensivlik kabi umumiy prosodiya bizning emotsiyalarimiz orqali tinglovchilarga hissiyotlarimizni ochib beradi. Quvonch, xafalik, jaxl va qo'rquv kabi emotsiyalar ham bizning nutqimiz nima haqidaligi va qay mazmunda ekanligini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan: insonning jaxli chiqqanida ovoz timbrlari ko'tariladi. Unda kuchli stress yoki qaxr alomatlarini paydo bo'lib, ovoz balandlashadi, xafalikda esa aksincha, ovozning pasayishi va nutqning sustlashuvi kuzatiladi. Shuningdek, nutqdagi pauzalar yoki tezlik ham inson nutqi uchun emotsional shakl beradi.

Emotsiya haqida so'z borar ekan bu so'zning ma'nosiga to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Emotsiya lotincha so'z emovcodan olingan bo'lib, hayajonlantiraman, iztiroblayman degan ma'nolarni anglatadi. U manaviy ruhiy hodisa hisoblanib, insonning ma'lum bir voqelikka nisbatan o'z munosabatini his qilishdan kelib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metadalogiyasi. Odamzod paydo bo'libdiki, muloqot verbal va noverbal shaklda uning

ajralmas ijtimoiy xususiyatlaridan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Suhbatdoshlar doimiy muloqotni amalga oshirar ekan, ularning nutqiy jarayonida turli xil emotsiyalar aks etadi. YA'ni, muloqotda nafaqat so'zlar balki emotiv birliklar ham ishtirok etadi. Bu haqida Shaxovskiy o'zining izlanishlarida shunday deydi: "Tilshunoslik emotsiyalar uning predmeti ekanligini kechroq anglab yetdi va u haqida yetarli bilimlar hajmi yo'qligi sababli u uzoq vaqt davomida his-tuyg'ular sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yondoshuvini shakllantirmadi. Ammo zamonaviy tilshunoslikda emotsiyalar bo'yicha tadqiqotning maxsus yo'nalishi – etimologiya hissiyotlarining lingvistik mavjudligini o'rganishga qaratilgan nazariy yondoshuvlar majmuasi sifatida paydo bo'ldi"[6]. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, emotsiya va uning kelib chiqishi haqida ham birmuncha ma'lumotlarni topishimiz mumkin.

XX asrning boshlariga kelib insoniyatning madaniyati, kelib chiqish tarixiga bo'lgan qiziqish ortishi bilan bir qatorda insoniyatning emotsiyalari va tajribalariga bo'lgan qiziqish ham paydo bo'ldi. XX asr tarixshunosligiga katta ta'sir ko'rsatgan Fransuz tarixchisi Lusien Febvr aynan emotsiya tarixiy tahlilini muhim masala sifatida ko'rgan birinchi tarixchilaridan biridir. Uning fikricha emotsiya biologik jihatda o'zgaradigan holat bo'lib, madaniy va ijtimoiy kontekstda shakllanadigan tarixiy hodisadir. Olim har bir davrda insonlar qanday his qilganini, bu hissiyotlar qanday ifoda etilishini va

ularni qanday baholagani farqli bo'lganligiga urg'u beradi. Shuningdek, tarixchi emotsiyalar tarixini o'rganish kerak degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, insoniyat tarixi davomida qanday his qilganini g'azab, quvonch, qo'rquv, sevgi kabi emotsiyalarning qanday shakllangani muhim ahamiyatga ega. Chunki emotsiyalar madaniyat mahsulidir, ya'ni ularni o'rganish orqali o'tmishdagi jamiyat tafakkurini yanada aniqroq va chuqurroq o'rganish mumkin. Albatta, emotsiya tarixini o'rganish biz tilshunoslari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, neyrolingvistika sohasida ham inson miya faoliyatidagi, shuningdek turli tuman hissiyotlarni boshidan o'tkazgan insonlarda sodir bo'lgan nutqiy muommolar ham yuzaga chiqib qolishi mumkin.

Emotsiya aslida qanday tushuncha va uning inson nutqi uchun ahamiyati shu kungacha bo'lgan ilmiy va nazariy ishlarda o'z aksini topib kelmoqda. Xususan, Amerikalik psixolog Don H. Hockenbury [1] "Discovery Psychology" va "Psychology" kabi mashhur psixologik kurslik kitoblari emotsiya haqida salmoqli fikrlarni keltirib o'tgan. Olim aslida bu kitobni uning turmush o'rtog'i Uning fikricha Emotsiyalar murakkab psixologik holat bo'lib, uchta asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi.

Subyektiv tajriba (ichki hissiyot)

Fiziologik javob (masalan yurak urishi)

Ifodaviy reaksiya (xatti-harakat yoki yuz ifodasi).

Ushbu uchta komponentlar kitoblarda nazariy jihatdan keltirilgan bo'lsada, kundalik turmushda atrofimizdagi insonlar bilan muloqot jarayonida ularga tez-tez guvoh bo'lamiz. Kimdur to'liqlanib gapirganda, yurak urushi va nafas olishi tezlashgani, ba'zan nutqini yo'qotib qo'yish kabi holatlarga duch kelamiz. Bundan tashqari muloqotga kirishmagan insonning yuz ifodasi orqali ham undagi xursandchilik, xafagarchilik, g'azab kabi hissiyotlarni anglab olishimiz qiyin bo'lmaydi.

Emotsiya va uning inson hayotidagi ahamiyati haqida so'z yuritir ekanmiz, angliyalik biolog olim va yozuvchi Charlz Darvinning fikrlarini e'tiborimizni tortdi. "Emotsiyalar ifodasi – bu inson va hayvonlarning umumiy evolyutsion ajdodiga ega ekanligini ko'rsatuvchi dalildir. Ba'zi hissiy holatlar yuz ifodalari, tana harakati va tovushlar orqali namoyon bo'ladi, bu ifodalar esa tug'ma bo'lib, evolyutsiya natijasida shakllanadi"[5:390] – deydi olim. Darhaqiqat insonlar emotsiyaga berilgan vaqtda o'zi istamagan holatda undagi hissiy kechinmalarni nutqi yoki harakati orqali ko'rsatib qo'yishi kundalik hayotimizda tez-tez uchrab turadigan holatlardan biridir.

Psixologiya, filosofiya va nevrologiya sohasida faoliyat olib borgan Vilyam Jeyms "Biz yig'laymiz, chunki biz qayg'udamiz emas, balki biz qayg'udamiz, chunki yig'laymiz" deya o'zining Jeyms-Lange nazariyasiga asos soladi. Emotsiya – bu fiziologik reaksiyalarning natijasi bo'lib, dastlab tana reaksiya qiladi (masalan yurak urishi tezlashadi yoki qo'llar qaltiraydi), keyin biz bu holatni emotsiya sifatida sezamiz.

Izlanuvchilar emotsiyaning turlarini va ularni aniqlash ustida ham tajribalar olib borishmoqda. Bu borada olib borilgan ishlarni kuzatar ekanmiz, vaqtlar o'tgani sari emotsiyaning tariflari va mohiyati o'zgarib turgani e'tiborimizni tortdi. Quyida ba'zi psixolog olimlarning emotsiya haqidagi fikr mulohazalari keltirilgan.

1972 yilda psixolog Poul Ekman madaniyatlararo umumiy bo'lgan emotsiyaning 6 ta asosiy turi borligini takidlagan. Ular qo'rquv, nafrat, jaxl, hayrat, shodlik va xafaliklardan iboratdir[2:304].

1980-yilda Robert Plutchik "Wheyl of Emotion" (emotsiyalarning g'ildiragi deb nomlangan boshqa bir emotsiya klassifikatsiya sistemasini yaratdi. Bu model nafaqat emotsiyalarni ro'yxatlab beradi, balki ularni dinamik tizim

sifatida tasvirlaydi ham. Ushbu modelda emotsiyaning asosiy 8 ta turi, qarama qarshi juftliklar, intensivlik darajasi, murakkab emotsiyalar va modelning maqsadi kabi bo'limlar jamlangan. [4:392]

1999-yilda P Ekman uyat, hayratlanish, mensimaslik, sharmandalik, g'urur, qoniqish va xushchaqchilik kabi boshqa asosiy emotsiya turlarini qo'shib, o'zining emotsiyalar ro'yxatini yanada kengaytiradi[3:45-60].

Paul Ekmanning ishlarini o'rganar ekanmiz, u emotsiyalarni asosiy va ikkinchi darajali emotsiyalar kabi kategoriyalarga ajratganini ko'rib chiqdik. Keyinchalik bu kategoriyalarni ko'plab olimlar qo'llab quvvatlagan ayniqsa R Plutchik ishlarida asosiy 8 ta emotsiya mavjudligi va qolganlari ularning kombinatsiyasi orqali hosil bo'lganligi to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Quyida ushbu kki kategoriya nazar tashlasak:

Asosiy emotsiyalar: biologik asoslangan, universal, yuz ifodalari orqali nomoyyon bo'ladigan (qo'rquv, g'azab, quvonch, nafrat, ajablanish, qayg'u kabilarni) o'z ichiga oladi.

Ikkinchi darajali emotsiyalar: Madaniyat, ijtimoiy tarbiya orqali shakllanadigan (masalan: uyat, aybdorlik, rashk kabilardir) [3]

Tahlil va natijalar. Emotsiya haqida so'z borar ekan, avvalo uni hissiyot va kayfiyat kabi insonning asosiy ichki tuyg'ularidan farqlab olish juda muhimdir. Kundalik hayotimizda ko'plab insonlar bu uchta tushunchani chalkashtirib yuborishadi, ammo ular har xil tushunchalardir. Emotsiya bu tashqi yoki ichki ta'sirlarga javoban paydo bo'ladigan reaksiyalardir, hissiyotlar esa emotsiya natijasida biz boshdan kechiradigan holatlardir. Emotsiyalarning davomiyligi juda qisqa bo'lsada, ular juda kuchlidir. Shuningdek, emotsiyalar odatda aniq va tushunib bo'ladigan sabablarga ega bo'ladi. Hissiyotlar esa vaziyatdagi tushunchalarimiz orqali vujudga keladi, shuning uchun ham bir xildagi emotsiyalar insonlar orasida ularning fikrlashi nuqtai-nazaridan turli tuman hissiyotlar uyg'otadi. Ikki hamkasbning emotsiya va hissiyotlarini misol qilib olaylik. Unda har ikkisinin ham jaxli chiqqan va ular ish jarayonida. Birinchi hodim ikkinchisidan jaxli chiqadi, sababi o'sha vaqtda uni hamkasbi diqqat bilan tinglamayapti. Ikkinchi hodim esa unga xasad qilmoqda, chunki so'zlayotgan hamkasbi garchi u bilan yosh jihatdan teng bo'lsada, ish haqida ko'proq ma'lumotga ega va doim rahbarlar e'tiborida. Demakki, har ikki hodimda ham ish jarayonida jaxl chiqishi kabi emotsiya bor, biroq ularning ichki hissiyotlari ularning dunyoqarashi doirasida turlicha bo'lib turibdi.

Ruhiy holat yoki kayfiyat vaqtinchalik emotsional holatdir. Bazan kayfiyat aniq sabab orqali paydo bo'lishi mumkin. Deylik siz kelasi hafta chet elga sayohatga bormoqchisiz va bu sizning kayfiyatingizni yuqori bo'lishi uchun zamin bo'ladi. Ammo ko'p holatlarda, kayfiyatning ko'tarilishi yoki tushib ketish sababini aniqlash qiyin bo'ladi. Masalan, siz o'zingizni bir necha kunlab xafa va xorg'in his qilasiz, lekin bunday kayfiyat uchun hech qanday omil sabab bo'lmaydi. YA'ni siz hech kim bilan tortishmaysiz, atrofingizda ko'ngilsiz holatlar sodir bo'lmasligi ham mumkin, shunday bo'lsada siz o'zingizni behuzur his qilaversiz.

Inson emotsiyaga berilganda, uning harakatlari, yuzida, ayniqsa nutqida emotsiya alomatleri yaqqol nomoyyon bo'ladi. Quyida keltirilgan kategoriyalarni hayotimizda emotsiya sabab ko'p uchrab turadigan vaziyatlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

So'zlayotgan inson ba'zan mavzuga doir so'zlarni to'g'ridan to'g'ri nutqiga chiqara olmay qolishi mumkin. Bu esa muloqotning samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Nutq davomida yuzaga kelgan emotsiya tinglovchilar uchun nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki so'zlovchining

ichki hissiyotlarini tushunishga ham yordam beradi. Bu esa ikki tomonning munosabatiga ham o'z tasirini ko'rsatmay qolmaydi.

Muloqot davomida hissiyotlarni bo'lishish, tomonlarning ya'ni, tinglovchi va so'zlovchi o'rtasida mustahkam ishonch olib kiradi.

Nutq davomida emotsiyadan foydalanish, tinglovchilarga motivatsiya ulashish va ularni o'z fikrlari tomonga yetaklash uchun eng asosiy qurol hisoblanadi. Ayniqsa, ommaviy tadbirlarda nutq so'zlaganda insonlarning diqqat e'tiborini jalb qilish va fikrini to'liq bayon eta olish uchun emotsiya juda zarur vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zan emotsiyalar madaniyatlar aro va individual shakldagi ko'rinishlarga ajratib ko'rsatiladi. Unda ko'p holatlarda turli xalqlar nutq orqali emotsiyalarni bir xil ko'rinishda ifoda etishlari haqida so'z boradi. Darhaqiqat, xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadbirlarda garchi o'zga

yurt vakillarining nutqini to'liq tushunmasakda, ulardagi hissiyotlarni bimalol tushunib olishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib emotsiyalar kundalik hayotimizda tez-tez sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, hissiyot va kayfiyatdan o'zining alohida hususiyatlari orqali ajralib turadi. Emotsiyalar insonning yuz ifodasi, tana harakati ayniqsa nutqi orqali yaqqol nomoyyon bo'lib qolishi mumkin. Emotsiyalar ham o'zining alohida kategoriyalariga ega bo'lib, inson tashqi muhitga qanday darajada va qanday holatda reaksiya qaytarishiga ko'ra tasniflanadi. Emotsiyalar kundalik hayotimizda muhim o'rin egallaydi, chunki bizning atrofimizdagi biror voqea hodisaga nisbatan reaksiyamiz yoki munosabatimizni aynan emotsiyalar ochib beradi. Xursand bo'lishimiz, xafa bo'lishimiz yoki nafratlanishimiz va hayratlanishimiz kabi hissiyotlarimiz yuzimizdagi va nutqimizdagi emotsiyalar orqali barchaga tushunarli bo'lib qolishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Hockenbury, D.H., Hockenbury, S.E. Discovering Psychology. -8th edition. – New York: Worth Publishers, Macmillan Learning, 2019.
2. Ekman P. Emotions Revealed: Recognizing faces and feelings to improve Communication and Emotional life. –New York: Times books. 2003.
3. Ekman P. Basic emotions//Handbook of cognition//edited by T Dalglish and M Power. – Chichester: John Wiley and Sons. 1999. P 45-60
4. Plutchik R. Emotion: A Psychoevolutionary Synthesis. – New York: Harper and Row, 1980.
5. Дарвин Ч. Выражение эмоций у человека и животных. Перевод с английского языка. Москва: Наука, 1991.
6. Шаховский в.и. Лингвистическая теория эмоций. – М.: Гнозис, 2008.
7. <https://publicspeakingiscool.blogspot.com/2017/12/the-power-of-emotions-in-speech.html>
8. <https://imotions.com/blog/insights/research-insights/understanding-emotional-prosody-unveiling-human-emotion-in-speech/>